

O'zbekiston – mening Vatanim



1-topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

Mening Vatanim – O'zbekiston. Bu yerda turli millat vakillari ahil-inoq yashaydilar. O'zbekiston – go'zal tabiatga, yerosti va yerusti boyliklariga ega o'lka. Yurtimizda Samarqand, Buxoro, Xiva kabi dunyoga mashhur qadimiy shaharlar ko'p.

O'zbekistonning poytaxti – Toshkent shahri. U katta va chiroyli shahar.



2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Vatan nima?
2. Nima uchun Vatan muqaddas deyiladi?
3. Yurtimizda qaysi millat vakillari yashaydilar?
4. O'zbekistonning qanday qadimiy shaharlarini bilasiz?



1-mashq. So'zlarni tartib bilan joylashtirib, gaplarni yozing.

1. yashayman, Men, O'zbekistonda.
2. Vatanimiz –, yurt, mustaqil, Bizning.
3. Toshkent, poytaxti –, O'zbekistonning.
4. Vatanim, go'zal, Men, faxrlanaman, bilan.



Tabiiy resurslar

yerusti boyliklari



yerosti boyliklari



3-topshiriq. Maqollarni o'qing. Mazmunini tushuntiring.

Vatanning tinch – sen tinch.

Vatansiz inson – kuysiz bulbul.

Bulbul chamanni sevar,
Odam – Vatanni.



2-mashq. So'zlarning mos juftini topib, so'z birikmalari hosil qiling.

O'zbekiston
go'zal
mustaqil
Vatanim
muqaddas

yurt
tuproq'i
bayrog'i
tabiat
davlat



3-mashq. So'zlarni o'qing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna: Mening Vatanim – O'zbekiston.



4-mashq. Nuqtalar o'rniga mos qo'shimchalarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Mening Vatan... (-i, -im) – O'zbekiston. **2.** O'zbekiston... (-da, -ga) turli millat vakillari ahil yashaydilar. **3.** O'zbekiston... (-ni, -da) qadimiy shaharlar ko'p. **4.** Samarqand nonlari butun dunyo... (-da, -ga) mashhur.



4-topshiriq. She'rni ifodali o'qing. Yodlang.

Ona diyor

Baxtiyormiz, quvnoqmiz,
Tabiatga o'rtoqmiz.
O'ynab-kulib yayraymiz,
Bulbul bo'lib sayraymiz.

Allomalar beshigi,
Bag'ri dunyo eshigi,
Madhiyasi, qo'shig'i,
Mustaqil O'zbekiston!

Quchog'i bog'-u bo'ston,
Betakror, jannatmakon,
Seni tan oldi jahon,
Mustaqil O'zbekiston!

Nurulloh Oston



“Mening Vatanim” mavzusida kichik matn tuzing.
Lug'atdagi so'zlarni yod oling.

